

2023-yil 31-yanvarida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining majlislar zalida aholi murojaatlarini joyiga chiqqan holda urganish bo'yicha Shtab tashkillashtirildi.

Bugun 2023-yil 31-yanvarida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining majlislar zalida aholi murojaatlarini joyiga chiqqan holda urganish bwyicha Shtab tashkillashtirildi. Unda, Vazirlar Kengashining Raisi F.Ermanov, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirining wrinbosari B.Abdullaev va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi komandiri, general-mayor R.Djuraevlar qatnashdi va tegishli idoralar bilan birgalikda ishchi guruh shakllantirildi.

Image not found or type unknown



Ishchi guruh vakillariga quyidagi:

1. Ijtimoiy infratuzilma obektlarining real holatini, aholini gaz, elektr energiyasi, ko'mir, ichimlik suvi bilan taminlash ahvolini

va fuqarolarning ushbu tizimdan roziligini o'rganish yo'nalishida:

- aholini gaz, elektr va ichimlik suvi bilan uzluksiz taminlash, avariya holatlarning barvaqt oldini olish, ko'p qavatli uy-joylar massivlarida kommunal xizmat ko'rsatish sifati;
- aholi uchun munosib infratuzilma, jumladan maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, bolalar maydonchalari va xizmat ko'rsatish shohobchalarini qurish va faoliyatini yo'lga qo'yish borasida amalga oshirilayotgan ishlar;

Image not found or type unknown



- oliy o'quv yurtlari talabalari uchun yotoqxona taminoti, ijarada yashovchi talabalarni qo'llab-quvatlash va nazorat qilish, bws vaqtini mazmunli o'tkazish, bandligini taminlashga ko'maklashish ishlarining ahvoli,

- muayyan yashash joyi bo'lmagan shaxslarni rehabilitatsiya qilish markazlari, mamuriy qabulxonalar, narkologiya dispanserlari, tibbiy hushyorxonalar va jazoni ijro etish muassasalaridagi sharoitlar.

Image not found or type unknown

2. Iste'mol bozorlaridagi narx-navo barqarorligini, oziq-ovqat zaxiralari mavjudligi va tadbirkorlar uchun qulay sharoitlar yaratilganligini o'rganish yo'nalishida:

- aholining kunlik ehtiyoji uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ichki imkoniyatlardan kelib chiqqan holda tayyorlash, qo'shimcha zarurati mavjud bo'lgan mahsulotlar zaxirasini shakllantirish bo'yicha shartnomalar tuzilganligi;
- noqonuniy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, narx-navoni suniy oshirish, nosog'lom raqobatchilik muhitini yaratish bo'yicha qonunga xilof holatlariga barham berilganligi;

Image not found or type unknown

- tomorqachilikni rivojlantirish, lalmi ehlarni o'zlashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilishini mahalliy lashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ahvoli;
- bozorlarda aholi, fermerlar va qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlik sub'ektlari uchun ichki bozorda sotish uchun etarlicha sharoit yaratilganligi;

Image not found or type unknown

- tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatiga noqonuniy aralashishga qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo'yicha vazifalar belgilab berildi.

Image not found or type unknown

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Matbuot Xizmati